

“Raqamlashtirish bo‘lmasa, sohada haqqoniy statistika bo‘lmaydi. To‘g‘ri ma’lumot bo‘lmaqach, agroxizmatlar rivojlanmaydi, fermerlar qachon nimani eksa, ko‘proq daromad olishini bilmaydi. Shuning uchun bu jarayonni tezlashtirish kerak”

Prezident: Shavkat Mirziyoyev.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni-2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini-2019.
3. O. Fayziyev. “Ta’lim-tarbiya sohasiga yangicha yondashuv — barqaror taraqqiyot garovi” maqolasi- «Xalq so‘zi»-2017.
4. Sh. Mirziyoyev. “Agrar sohada yil yakunigacha kutilayotgan natijalar va kelgusi yildagi vazifalar” yuzasidan o’tkazilgan yig‘ilishi. 2024

### **Jadidlar millatning yuragida yashamoqda**

#### **Baratova Hulkar**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda jadidlarga berilayotgan e’tibor va jadidchilik harakatidagi holatlarning yoshlarimiz ongiga ta’siri. Jadidchilik harakati namoyandalari va qilgan ishlari haqida ma’lumot va bugungi kunga kelib jadidchilik targ‘ib qilish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan qarorlar.

**Аннотация**

В данной статье внимание уделено современности в нашей стране и влияние обстоятельств джихадистского движения на умы нашей молодежи. Джадидизм тнформация о представителях движения и чем они занимались сегодня в настоящее время разрабатываются решения по пропаганде джадидизма.

**Annotation**

In this article, the attention paid to modernity in our country and the influence of the circumstances of the jihadist movement on the minds of our youth. Jadidism Information about the representatives of the movement and what they did today Currently, the decisions on the promotion of Jadidism are being developed.

**Kalit so‘zlar**

Jadidchilik , targ‘ibot, islohot, dunyoqarash, ijtimoiy tuzim, niqob, faoliyatn, ma’naviyat, kelajak,

## Ключовы слова

Модернизм, пропаганда, реформа, мировоззрение, социальный строй, маска, деятельность, духовность, будущее

## Keywords

Modernism, propaganda, reform, worldview, social structure, mask, activity, spirituality, future

Shiddat bilan rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonda bugungi kunga kelib Jadidchilik harakati g'oyatda katta e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi yoshlariniz dunyoqarashi va ongini kengaytirish, avloq ajodolar kim ekanligini anglatish . Shu o'rinda savol tug'iladi nega keng targ'ib qilingandi.Imperializm tomonidan yozilgan O'zbekistonning yaqin tarixi keng miqyosda va xolisona tadqiq etilishga muhtoj. Bunda jadidchilik harakati, ularning vaziyati, jasorati, xatolari va fojalari alohida o'rin tutishi lozim. Xo'sh, bu nima uchun kerak? 6-7 mart kunlari Toshkentda "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" nomli halqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda barcha turkiy davlatlar hamda AQSh, Rossiya, Shvetsiya, Germaniya fuqarolari ishtirok etdi.Keyingi yillarda O'zbekiston davlati va jamiyati jadidlar fenomeniga katta e'tibor bermoqda, o'rganmoqda, o'ylanmoqda. Xo'sh, nega? Nazarimda, jadidlar fenomeni orgali O'zbekiston xalqi, davlati vao'zbek degan turkiy-musulmon o'zlik, katta bir davrni va katta bir makonni tahlil qilib ko'rmoqchi.

4-oktabr Turkiston milliy ozodlik harakati faollari ommaviy qirg'in qilingan sana.

1938-yilning shu kunida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, yana faoliyati aksariyat jamoatchilikka noma'lum qolayotgan yuzdan oshiq o'zbek ziyolilari o'z vatanining poytaxti Toshkentda kommunistlar rejimi rahbari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlangan. Qatl etilganlarning barchasi milliy uyg'onish harakati faollari, jadidchilar edi.Turkistonni bosqindan, qoloqlik botqo'g'idan, arosatdan ozod qilishga bel bog'lagan, buni qurolli qo

'zg'alon emas, o'qish, ta'lim sifati bilangina amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparvarlar "xalq dushmani" tamg'asi ostida otuvga hukm qilindi.

Inqirozdagi Turkiston umidlari sifatida siyosiy maydonga chiqqan bu oydinlarning xiyonatkorona qatl etilgani uzoq yillar millatdan yashirildi.Mustaqillikka kelib marhum prezident Islom Karimov jadidlar xotirasini abadiylashtirdi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi. Ammo bundan qat'i nazar, jadidlar merosiga

nisbatan xovotir tuzumni tark etmadi, ular adabiyoti mamlakatda targ'ib etilmadi, jadidlar g'oyasi qabul qilinmadı. Iqtidordagi hukumat davriga kelib bu xavotir bir qadar bosilayotgandek ko'rindi.

Prezident Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'lidan og'ishmay borishi kerakligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev juma kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni ko'tardi. Uning nutqidan iqtiboslarni davlat rahbari matbuot kotibi Sherzod Asadov e'lon qildi. Prezident ushbu kengashga o'zi raislik qilayotganini, hududlarda esa bu sohaga birinchi rahbarlar mas'ul ekanini, chunki "ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat ustuvor masala" ekanini eslatdi.

Prezident yaqin kunlarda o'tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ma'rifiy harakat vakillari - jadidlar merosini o'rganish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risidagi qarorni imzolashini aytди.

"Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", - dedi ."Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan

huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy", - dedi Shavkat Mirziyoyev. "Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergen yo'lidan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", - dedi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyatparvar nomoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyalar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalarni avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda

g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy.madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlari olib bordilar. Mahmusxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi".?

Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqt

taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarini turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi." Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iatisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar yetishib chiqishini o'rzu qilgan.

Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallahga yordam berishlarini ta'kidlaganlar.

Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mayjudligini ta'kidlagan.

Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib,

ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligi o'qtirildi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki ular mustaqillik va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishlari bilan asosiy e'tiborni, birinchi navbatda, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga sarflaganlar. Ta'limga bo'lgan bunday e'tibor tarixiy tajribada o'zini oqladi. Shuning uchun ham, davlatimiz va hukumatimiz islohotlarning hamma bosqichlarida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya sifatiga va jarayoniga bog'liq. Maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Shu jixatdan olib qaraganda, zamonaviy axbort texnologiyalari va xorijiy tajribalarning ijobiy jixatlarini amalda qo'llash muxim o'rinn tutadi. Ayni kunda xorijiy tajribaning foydali tomonlaridan biri modulli yondoshuvdan ta'lim tizimimizda samara foydalanishimiz mumkin. Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabalarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustagil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat. Bu vazifalarni bajarishda yanada samaraliroq natijalarga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'limtexnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keladi.

Umuman olganda, fan va ta'lim uyg'unligi zamonaviy taraqqiyotning muhim omili sifatida O'zbekiston tarixidagi har bir mavzuni o'rganish, o'qitish va targ'ib qilishda ham eng asosiy talablardan biridir.

Mustaqillik Vatanimiz tarixida buyuk tarixiy voqyea hisoblanib, ushbu tarixiy jarayon xalqimizning uzoq davom etgan qaramlik va mustamlakachilikdan xalos etdi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek 『Chor mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvarlar, fidoyi insonlarning o'z manfaati, huzur-halofatidan kechib, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi』.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston

yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'larini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniyma'naviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va Aishlog xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madanivatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zları ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni'o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001.  
B108-109
5. Jadidchilik: islohot , yangilanish, mustaqillik, va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent" Universitet" 1999.

## **ABU ALI IBN SINO: INSON KAMOLOTIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLAR**

Komila Dekanovna Alimova

Toshkent davlat stomatologiya instituti  
"O'zbek tili va pedagogika" kafedrasи katta o'qituvchisi.

[komiladekanovna@gmail.com](mailto:komiladekanovna@gmail.com)